

**“Maxam-Chirchiq”AJning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va
komplayens boshqarmasining
NIZOMI**

I.Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi va 2024-yil 5-iyundagi «Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida»gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-5177-son, 2022-yil 12-yanvardagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-81-son, 2022-yil 11-maydagi «Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-240-son va 2025-yil 21-apreldagi «Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta‘minlash hamda faoliyat samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-147-son Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi «Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta‘minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-259-son va 2025-yil 30-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi PF-270-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi Direktorining 2026-yil 28-martdagi «Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqash to‘g‘risida»gi 84-son Buyrug‘i (Adliya vazirligida ro‘yxat raqami 3829, 06.05.2026-y.) hamda “Maxam-Chirchiq” AJ (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat deb yuritiladi) boshqaruvi raisining 2026-yil 16-fevraldagi 76-son buyrug‘iga muvofiq ishlab chiqilgan va Jamiyatning ichki normativ hujjati bo‘lib, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va komplayens boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda Boshqarma deb yuritiladi) faoliyatini tartibga soladi.

1.2. Boshqarma o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek, ushbu Namunaviy nizomga muvofiq amalga oshiradi.

1.3. Boshqarma Jamiyat faoliyatida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish ishlarini tizimli ravishda olib borish, monitoring qilish, korrupsiyaviy

xatlarni baholash, mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarni yoki manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olish va minimallashtirish maqsadida Jamiyat va uning korxonalarida tashkil etilgan korrupsiyaga qarshi ichki tuzilmalar orqali korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarni samarali tashkil etish va tizimni sohaga oid xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida muvotirlashtirib borish maqsadida tuzilgan.

II. Boshqarma faoliyatini tashkil etish

2.1. Boshqarma Jamiyatning tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi va o'z faoliyati yuzasidan Jamiyat Kuzatuv kengashiga bo'ysunadi va uning oldida hisobdor hisoblanadi.

2.2. Boshqarma oldiga qo'yilgan vazifalarni tezkor va sifatli bajarish maqsadida kundalik tashkiliy aloqalar Jamiyat boshqaruv raisi orqali amalga oshiriladi.

Bunda Boshqaruv raisiga Boshqarma faoliyat yo'nalishlariga taalluqli masalalar bo'yicha xujjatlarni ijro uchun topshirish hamda Boshqarma rahbar va xodimlarini xizmat safarlariga yuborish, ularni qonunchilikka muvofiq mehnat ta'tiliga chiqarish va chaqirib olish, mehnat qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish vakolati beriladi. Ushbu tadbirlar Boshqarma boshlig'i tomonidan Boshqaruv raisi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

2.3. Boshqarma faoliyati "O'zkimyosanoat" AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi orqali O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) tomonidan uslubiy jihatdan muvofiqlashtiriladi.

2.4. «E-anticor.uz» elektron platformasida Boshqarma rahbari va xodimlarining elektron reestri yuritiladi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qilingan ishlar haqidagi hisobot elektron shaklda taqdim etiladi, anonim so'rovnomalar o'tkazilib, natijalarini jamoatchilikka e'lon qilinadi.

2.5. Boshqarma Kuzatuv kengashiga zaruriy qarorlar qabul qilish uchun belgilangan muddatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, hisobotlar va ma'lumotlar taqdim etib boradi. Shuningdek, Yillik rejalar, yo'l haritalarini va boshqa hujjatlarni tasdiqlatishga kiritib boradi.

Kuzatuv kengashi tomonidan tezkor qaror qabul qilishi uchun zarur bo'lgan hujjatlarni navbatdan tashqari ko'rib chiqish uchun yakka tartibda elektron pochta orqali yuboradi yoki onlayn konferensiyada ko'rib chiqish tashabbusi bilan chiqadi.

2.6. Boshqarma o'z vazifalarini amalga oshirishda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari, shuningdek, xuquqni muxofaza qiluvchi idoralar bilan hamkorlik qiladi.

2.7. Boshqarmaning shtat birligi Jamiyatning tashkiliy tuzilmasiga ko'ra 4 (to'rt) shtat birligidan iborat.

Boshqarma tarkibi boshqarma boshlig'i, uning bir nafar o'rinbosari va ikki nafar bosh mutaxassisdan iborat.

2.8. Boshqarma faoliyati Boshqarma boshlig'i tomonidan boshqariladi, boshqarma boshlig'ining o'rinbosari hamda xodimlari tomonidan boshqarma faoliyati amalga oshiriladi. Boshqarma boshlig'i tomonidan mazkur Nizomda belgilangan normalar doirasida berilgan og'zaki va yozma topshiriqlar Boshqarma boshlig'i o'rinbosari hamda xodimlari tomonidan o'z vaqtida ijroi etilishi majburiydir.

2.9. Boshqarma xodimlari O'zbekiston Respublikasi Mehnat qonunchiligi, Jamiyat ichki-me'yoriy hujjatlari, Jamiyat Jamoa shartnomasi hamda sohaga aloqador boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan imtiyozlardan to'liq foydalanishi, shuningdek o'z vazifalari va majburiyatlarni xalqaro standartlar hamda O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablari asosida olib borishi Jamiyat Kuzatuv kengashi hamda Boshqaruv raisi tomonidan kafolatlanadi.

2.10. Boshqarma o'z faoliyatini amalga oshirish davomida ma'lumotnoma, axborot, so'rovnoma, murojaat, bildirgi, xizmat xati va tahliliy hujjatlar tayyorlaydi, xulosalar beradi, dalolatnoma rasmiylashtiradi, tushuntirish xatlari oladi, ishlab chiqilgan chora-tadbirlar, dastur va takliflarni Kuzatuv kengashiga yoki Jamiyat boshqaruvi raisiga kiritadi.

2.11. Boshqarma xodimlari o'z vazifalarini bajarishga oid faoliyatida mustaqqiligi ta'minlanadi, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga bog'liq ishlarni ko'rib chiqishda to'sqinliklarga, ta'qibga yo'l qo'yilmaydi va bu jarayon O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi asosida himoya qilinadi.

III. Boshqarma mas'ul lavozimlariga nisbatan qo'yiladigan talablar

3.1. Boshqarma mas'ul lavozimlariga nisbatan ish tajribasi va kasbiy kompetensiyasiga doir quyidagi minimal talablar belgilanadi:

yurisprudensiya, iqtisodiyot, moliya, soliq, audit, tizimli tahlil, menejment yoki axborot texnologiyalari mutaxassisliklari bo'yicha oliy ma'lumot;

Boshqarma boshlig'i lavozimi uchun mutaxassisligi bo'yicha kamida 4 yillik, boshqaruv xodimlari uchun 3 yillik ish staji. Bunda komplayens va korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi ish stajiga ustuvorlik beriladi;

Boshqarma mas'ul lavozimga tayinlangandan so'ng korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o'quv kurslaridan o'tganlik to'g'risida sertifikatga ega bo'lish. Sertifikatga ega bo'lgan mutaxassislar Agentlikda yuritiladigan ichki nazorat bo'linmalariga nomzodlar zaxirasiga kiritiladi.

IV. Boshqarma boshlig'i va xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish hamda ularni intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini kelishish tartibi

4.1. Boshqarma boshlig'i Jamiyat tomonidan Agentlik bilan birgalikda o'tkaziladigan ochiq, shaffof tanlovlar orqali yuqori malaka va ish tajribasi hamda kasbiy professional kompetensiyalarga ega bo'lgan, eng munosib nomzodlar orasidan tanlanadi va lavozimga tayinlanadi.

Bunda, belgilangan tartibdagi tanlov hamda tegishli komissiya xulosasi Agentlik bilan kelishilganidan so'ng, Kuzatuv kengashining qaroriga muvofiq Boshqarma boshlig'ini ishga qabul qilish va lavozimidan ozod qilish haqida buyruq chiqarish vakolati Boshqaruv raisiga beriladi.

4.2. Boshqarmaning mustaqilligini va xolisligini ta'minlash maqsadida Boshqarma boshlig'i hamda xodimlarini lavozimidan ozod etish masalasi Agentlik bilan kelishilgan holda, Jamiyat kuzatuv kengashi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Bunda Boshqarma boshlig'i va xodimlariga nisbatan mehnat qonunchiligi, lavozim yo'riqnomasi, mehnat shartnomasi, ichki tartib-qoida va odob-axloq qoidalariga rioya etilmasligi yuzasidan Kuzatuv kengashi a'zolarini yozma ravishda xabardor qilgan holda Boshqarma boshlig'i, Jamiyat Boshqaruv raisining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha o'rinbosari yoki Jamiyat boshqaruv raisining tashabbusi bilan xizmat tekshiruvi o'tkaziladi. Xizmat tekshiruvi natijasi Kuzatuv kengashi a'zolariga taqdim etiladi.

Shundan so'ng, Boshqarma boshlig'i yoki xodimlarini lavozimidan ozod etish bo'yicha Jamiyat kuzatuv kengashi qarori yoki uning yozma roziligi bilan Boshqaruv raisi, Jamiyat Boshqaruv raisining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha o'rinbosari yoxud Boshqarma boshlig'ining taqdimnomasi Agentlikka kiritiladi.

Ushbu taqdimnoma (yoki qaror)da Boshqarma boshlig'ini lavozimidan ozod etish sabablari, motivlari ko'rsatiladi. Qarorga Boshqarma boshlig'ini lavozimidan ozod etish sabablari va asoslarini tasdiqlovchi hujjatlar (masalan, Boshqarma boshlig'ini arizasi, ichki mehnat tartibi qoidalarini buzganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar va boshqa shu kabi hujjatlar) ilova qilinadi.

4.3. Agentlik tomonidan Boshqarma boshlig'i va xodimlarini lavozimidan ozod etish sabablari, motivlari yetarli emas deb hisoblansa, shu jumladan ular ta'qib qilinayotganligi haqida ma'lumotlar bo'lsa, ushbu masalada lavozimidan ozod etilish masalasi ko'rilayotgan xodim bilan suhbat o'tkazilishi mumkin.

4.4. Quyidagilar Boshqarma boshlig'i va xodimlarini lavozimidan ozod etishni kelishishni rad etish uchun asos bo'ladi:

lavozimidan ozod etish uchun sabablar yetarli emas deb topilganda;

o'z zimmasiga yuklatilgan vazifa va majburiyatlar doirasidan tashqari vazifalarni bajarmaganligi yoki o'ziga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarganligi uchun ta'qib qilinganligi holati aniqlanganda.

4.5. Taqdim etilgan hujjatlar Agentlik tomonidan uch ish kuni ichida ko'rib chiqilib, tegishli tashkilotga Boshqarma boshlig'i yoki xodimini lavozimidan ozod etishni kelishish yoki kelishishning rad etilganligi sabablari ko'rsatilgan xat taqdim etiladi.

4.6. Boshqarma boshlig'i yoki xodimlarini intizomiy javobgarlikka tortish masalasi Agentlik bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Bunda Boshqarma boshlig'i va xodimlariga nisbatan mehnat qonunchiligi, lavozim yo'riqnomasi, mehnat shartnomasi, ichki tartib-qoida va odob-axloq qoidalariga rioya etilmasligi yuzasidan Kuzatuv kengashi a'zolarini yozma ravishda xabardor qilgan holda Boshqarma boshlig'i, Jamiyat Boshqaruv raisining

komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha o'rinbosari yoki Jamiyat boshqaruv raisining tashabbusi bilan xizmat tekshiruvi o'tkaziladi. Xizmat tekshiruvi natijasi Kuzatuv kengashi a'zolariga taqdim etiladi.

Shundan so'ng, Boshqarma boshlig'i yoki xodimlarini intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha Jamiyat kuzatuv kengashi qarori yoki uning yozma roziligi bilan Boshqaruv raisining yoxud Boshqarma boshlig'ining taqdimnomasi Agentlikka kiritiladi.

4.7. Taqdimnoma (yoki qaror)da quyidagilar ko'rsatiladi:

intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'lgan holatlar va ularning tavsifi;

aniqlangan qoidabuzarlik yoki kamchiliklar bo'yicha xizmat tekshiruvi materiallari;

xodimning tushuntirish xati yoki uni taqdim etishdan bosh tortganligi to'g'risidagi dalolatnoma;

qo'llash taklif etilayotgan intizomiy jazo turi.

4.8. Agentlik taqdim etilgan materiallarni o'rganib, intizomiy javobgarlikka tortish asoslarining qonuniyligi va asosliligini, Boshqarma mustaqilligiga ta'sir etuvchi omillar mavjud yoki mavjud emasligi, qo'llanilayotgan choraning mutanosibligini baholaydi hamda uch ish kuni ichida xulosa taqdim qiladi.

4.9. Boshqarma xodimlari Boshqarmasi boshlig'i tavsiyasiga ko'ra, Jamiyat kengashining qaroriga muvofiq lavozimga tayinlanadi.

4.10. Boshqarmaning zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirishga oid faoliyati Agentlik tomonidan muvofiqlashtiriladi.

V. Boshqarma rahbar va xodimlari faoliyatiga nisbatan samaradorlik ko'ratkichlarini qo'llash

5.1. Boshqarma rahbar va xodimlari faoliyatiga nisbatan samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) qo'llanilmaydi.

Bunda samaradorlik ko'rsatkichlaridan (KPI) kelib chiqadigan ustamalar tegishli lavozim uchun belgilangan maksimal miqdorda tatbiq etiladi.

5.2. Boshqarma rahbar va xodimlari faoliyatiga nisbatan samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI), mehnatga haq to'lash tizimida nazarda tutilgan ustamalarni pasaytirish masalalari Agentlik roziligi bilan amalga oshiriladi.

5.3. Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan Boshqarma rahbar va xodimlariga nisbatan samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) pasaytirish bo'yicha Agentlikka taqdimnoma kiritiladi.

5.4. Samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) pasaytirishga quyidagilar asos bo'ladi.

ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etilmaganligi;

xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmaslik yoki intizomiy jazo qo'llanilganligi;

korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi to'liq joriy etilmaganligi yoki samarali faoliyat yuritmayotganligi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rilmaganligi.

5.5. Kuzatuv kengashi tomonidan taqdim etilgan asoslantiruvchi hujjatlar Agentlik tomonidan ular berilgan kundan boshlab uch ish kuni ichida ko‘rib chiqilib, Boshqarma rahbar va xodimlariga nisbatan samaradorlik ko‘rsatkichlarini pasaytirishni kelishish yoki kelishishning rad etilganligi sabablari ko‘rsatilgan xat taqdim etiladi.

VI. Boshqarmaning vazifa va funksiyalari

6.1. Boshqarmaning asosiy maqsadi Jamiyat va uning tizim korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ISO 37001:2025 Korrupsiyaga qarshi xalqaro standarti talablariga javob beruvchi, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va rivojlantirish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, tashkilot tizimi xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta’minlashdan iborat.

6.2. Quyidagilar Boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olish, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

Jamiyat faoliyatida korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, maishiy korrupsiyaning oldini olish, shu jumladan, raqamlashtirish, byurokratiyani qisqartirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

Jamiyatning barcha turdagi ichki buyruq va qarorlarini (shu jumladan shaxsga doir ma’lumotlarni egasizlantirilgan tarzda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror, Farmon va farmoyishlari bilan tashkil etilgan barcha komissiya va kengashlarning bayonnomalarini (qonuchilikka muvofiq davlat siri bilan bog‘liq masalalaridan tashqari) “E-qaror” tizimi orqali qabul qilish jarayonini nazorat qilish;

idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish va yakunlari bo‘yicha aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bekor qilish bo‘yicha taklif kiritish;

davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik choralari ko‘rish, davlat xaridlari bo‘yicha preventiv o‘rganishlarni amalga oshirish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan muntazam ravishda Agentlikka elektron hisobot taqdim etib borish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni olib borish;

Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlar ro‘yxatini shakllantirish, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqib, tasdiqlanishini ta’minlash;

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni amalga oshirish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash imkonini beruvchi situatsion markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar kiritish;

Jamiyat faoliyatida mavjud korrupsion xavf-xatarlarni baholash ularni oldini olish va minimallashtirish chora-tadbirlar rajalarini ishlab chiqish va unga asosan tadbirlarni amalga oshirish;

mehnat jamoasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik va odob-axloq qoidalariga rioya qilish bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ijobiy tajribalarni ommalashtirish va joriy etish yuzasidan takliflar kiritish;

Jamiyatning tizim korxonalarida Korrupsiyaga qarshi kurash va komplayens bo‘linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish.

6.3. Boshqarma asosiy vazifalarini amalga oshirish maqsadida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Jamiyat faoliyati bilan bog‘liq funksiyalarni amalga oshirishda byurokratik holatlar va korrupsiyaviy omillarni aniqlaydi;

ichki audit xizmati bilan birgalikda asosiy vositalar bo‘yicha davlat xaridining qonuniyligi, yillik xarid reja-jadvaliga muvofiqligi, xarid predmetining boshlang‘ich narxi to‘g‘ri shakllantirilganligini o‘rganadi va yozma xulosasini xarid komissiyasiga taqdim etadi;

Jamiyat tomonidan barcha turdagi ichki buyruq va qarorlarni shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror, Farmon va farmoyishlari bilan tashkil etilgan komissiya va kengashlarning bayonnomalarini «E-qaror» tizimi orqali qabul qilinishini (tizimda e‘lon qilinishini) nazorat qilib boradi;

Jamiyat va uning tizim korxonalari faoliyatida mavjud byurokratik to‘siqlar va korrupsiyaviy omillar bo‘yicha axborot-tahliliy ma‘lumotlar tayyorlaydi, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, shu jumladan sohada raqamlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi va taqdim etadi;

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni amalga oshirish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash imkonini beruvchi situatsion markazlar faoliyatini tashkil etadi va takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish hamda ekspertiza yakunlari bo‘yicha aniqlangan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omilni bartaraf etish choralari ko‘radi yoki bekor qilish bo‘yicha Jamiyat rahbariga taklif kiritadi.

Jamiyat mol-mulki talon-toraj bo‘lishini oldini olish maqsadida, savdo, xarid operatsiyalari, inventarizatsiya va shu kabi tadbirlarda ishtirok etadi hamda tovar-moddiy boyliklarga oid buxgalteriya hisobotlari bilan tanishadi;

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarni va tasdiqlash uchun tashkilot rahbariga kiritadi;

Jamiyatda davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi;

Jamiyat tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar loyihalarini tashkilot tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtai nazaridan baholaydi va xulosalar beradi;

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan aniq takliflarni Agentlikka kiritib boradi.

Jamiyat faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, ularning natijalari bo'yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va tashkilotda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini yaratadi;

Jamiyat tomonidan o'xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida davlat hokimiyatining boshqa organlarida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo'nalishlari haqida ma'lumot to'playdi;

maxsus axborot aloqa kanallari orqali Jamiyat xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va ularni belgilangan tartibda ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

Jamiyatda yuritiladigan xizmat tekshiruvlari reestri yoki o'tkazilgan xizmat tekshiruvlarini ro'yxatga oladigan boshqa tegishli hujjatda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo'yicha ma'lumotlarning to'g'ri va to'liq aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

Jamiyatda amalga oshiriladigan Davlat xaridlarida qonunchilik talbalariga rioya etilishini nazorat qiladi, mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini oladi va fosh etish choralari ko'radi;

davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilishda va tashkilot bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

Jamiyat xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo'ljallangan maxsus axborot aloqa kanallarining faoliyat natijalarini tahlil qiladi va tahliliy materiallarni tashkilot xodimlariga yetkazadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida Jamiyatga yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

Jamiyat va uning tizim korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ISO 37001:2025 Korrupsiyaga qarshi xalqaro standarti talablariga mosligini ta'minlaydi;

Jamiyat xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarining korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Jamiyat xodimlari, shu jumladan korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlardagi xodimlar uchun korrupsiyani oldini olish bo'yicha o'quv materiallarini ishlab chiqadi;

o'quv rejaga muvofiq davlat Jamiyat barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha treninglarning o'tkazilishini hamda ularda xodimlarning ishtirok etishini nazorat qiladi;

Jamiyat xodimlari va fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot tadbirlarida ishtirok etadi;

Jamiyat rasmiy veb-saytidagi «Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va komplayens» boshqarmasi hamda ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalariga joylashtirilgan ma'lumotlarni yangilanib borilishini ta'minlaydi;

Jamiyat xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va tashkilotning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;

Jamiyatdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar mol-mulk talon-toroj qilinishi bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazish tashabbusini ilgari suradi va unda ishtirok etadi;

odob-axloq komissiyasiga manfaatlar to'qnashuvi holatlarini bartraraf etish yuzasidan taqdimnoma kiritadi;

odob-axloq komissiyasi tomonidan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va maqbulligini tekshiradi;

amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan departament, boshqarma, xizmat va bo'linmalaridan zaruriy hujjatlar (ma'umotnomalar, hisobotlar, statistik ko'rsatkichlar, moliyaviy o'preatsiyalar, hisob-kitoblar va o'tkazmalar)ni olib o'rganish va aniqlangan xolat yuzasidan xulosalar ishlab chiqadi;

davlat organlari va tashkilotlari tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul tuzilma (shaxs)lar bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlarni tashkil etish va xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan konferensiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etadi;

Jamiyat faoliyati uning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga hamda xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan tekshiruvlar o'tkazadi;

Jamiyat faoliyatidagi korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi va xodimlar orasida so'rovlar o'tkazadi;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo'yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibligi va yetarliligini nazorat qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida tashkilotda korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi;

har chorakda, keyingi oyning birinchi o'n kunligida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to'g'risidagi chorak hisobotini Agentlikka hamda Kuzatuv kengashiga taqdim etadi;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

qonunchilik hujjatlari bilan Jamiyat zimmasiga yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to'g'risida so'rovlar yuboradi va ularning so'rovlariga javob berishda ishtirok etadi;

davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

korrupsiyaviy xatti-harakatlarni bartaraf qilish yoki korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi;

o'z vakolatlari doirasidagi hujjatlar va materiallarni yaratish, saqlash va yig'ma jildlarga jamlab borish orqali boshqarmaning ma'lumotlar bazasini shakllantiradi.

Jamiyat va uning tizimidagi korxonalarda mablag'larini samarali va maqsadli ishlatilishi hamda xaridlar sohasida qonunchilikka rioya etilishi ustidan «Komplayens-nazorat»ni amalga oshiradi;

Budjet ssudalari, kredit liniyalari hamda Jamiyat tomonidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan kreditlardan (qarzlardan), investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun ajratiladigan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi ustidan «Komplayens-nazorat»ni amalga oshirishni tashkil etadi;

o'rganishlarda aniqlangan moliyaviy qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish, yetkazilgan moddiy zararni undirish, mansabdor va mas'ul shaxslarni qonuniy javobgarlikka tortish yuzasidan Kuzatuv kengashi yoki Jamiyat rahbariga takliflar kiritadi.

6.4. Boshqarma xodimlari zimmasiga ularning vazifalaridan kelib chiqmaydigan topshiriqlar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

6.5. Boshqarma o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda Agentlik oldida hisobdor hisoblanadi.

6.6. Boshqarma hamda uning xodimlarining vazifalari, funksiyalari Agentlik bilan kelishilgan holda ish beruvchi tomonidan tasdiqlanadi.

VII. Boshqarmaning huquq va majburiyatlari

7.1. Boshqarma o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Jamiyat xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni so'rab olish;

xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Jamiyat xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish;

Jamiyat xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy, mansabini suiiste'mol qilish va korxona mulrini talon-toraj qilish huquqbuzarliklari yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish;

Jamiyat rahbariyatiga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'z faoliyati va vakolati doirasida Jamiyat xodimlariga yozma ko'rsatmalar, topshiriq va tavsiyalar berish;

Jamiyatning korrupsiyaga oid majlislarida ishtirok etish;

tekshiruvlar o'tkazish, hujjatlarni talab qilish va xodimlardan yozma tushuntirishlar olish, dalillarni yig'ish va hujjatlashtirish (dalolatnoma, xizmat

tekshiruv, Davlat xaridlari bo'yicha xulosa, normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi kurash ekspertiza xulosasi va boshqalar);

o'rganilayotgan ob'ektlarning hududlari va binolariga moneliksiz kirish, ularning hujjatlari hamda materiallaridan foydalanish, har qanday ishlab chiqarish, omborxona, savdo binolari, tovar-moddiy boyliklar saqlanadigan joylarni va binolarni ko'zdan kechirish, tegishli hujjatlar (arxivlar), elektron tashuvchilarda saqlanayotgan ma'lumotlar bilan tanishish hamda ma'lumotlarni ko'rib olish;

o'rganishlar davomida aniqlangan qonunbuzilish holatlari yuzasidan yozma tushuntirishlar, shuningdek, hujjatlarning zarur bo'lgan tegishli tartibda tasdiqlangan ko'chirma va nusxalarini talab qilib olish, aloqador bo'lgan hujjatlar bilan tanishish, o'rganilayotgan ob'ekt rahbaridan asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar va pul mablag'lari xatlovini o'tkazishni talab qilish;

o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun real vaqt rejimida Jamiyatning ma'lumotlar bazasidan foydalanish;

Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi «Komplayens-nazorat» tizimi rahbar va xodimlarini ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish, rag'batlantirish, malakasini oshirish, attestatsiyadan o'tkazish va intizomiy jazo qo'llash bo'yicha Jamiyat rahbariga taklif kiritish;

O'rganish jarayonida maxsus kasbiy bilimlarni talab etadigan masalalarni ko'rib chiqish uchun Jamiyat tizimidagi departament, boshqarma va mustaqil bo'limlaridan hamda boshqa tashkilotlarning ekspertlari va mutaxassislarini jalb etish;

Boshqarma boshlig'i va xodimlar o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida ish vaqtida ish joyidan tashqarida vakolatli va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda uchrashuvlar o'tkazish, tadbirlarda ishtirok etish, zarurat tug'lsa kontragenlarni joylarga chiqib o'rganish, murojaatchilar bilan shaxsan uchrashishga to'g'ri kelsa shaxsning maxfiylikni ta'minlash maqsadida ish xonadan tashqarida uchrashish. Bunda, Boshqarma boshlig'i va xodimlarning ish haqqi to'liq saqlanib qoladi va maxfiylikni ta'minlash maqsadida xech kimga hisobot berilmaydi.

Boshqarma o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda qonun hujjatlariga muvofiq korrupsiyaning oldini olish bo'yicha boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

39. Boshqarma quyidagi majburiyatlarga ega:

Boshqarma faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari, farmon va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek, Kuzatuv kengashining qarorlari, bayonnomalari, Jamiyat Ustavi va ushbu Nizom talablariga rioya etilishini ta'minlash;

korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olish, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

Jamiyat xodimlari tomonida Korrupsiyaga oid qilmishlar sodir etilishini oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirish;

ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan zimmasiga yuklatilgan vazifalarni zarur darajada va samarali bajarish;

qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish va o'z vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;

Jamiyat va uning tizim korxonalarida jinoyat alomatlari, xususan korrupsiya holatlari aniqlanganligi to'g'risida zudlik bilan to'g'ridan-to'g'ri yuqori turuvchi organ, Agentlik va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

Jamiyat va uning tizim korxonalarining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, odob-axloq qoidalarining korrupsiyaga oid qismining buzilganligi fakti yuzasidan Jamiyat rahbariyatiga yoki kuzatuv kengashiga ma'lumotnomalar kiritish;

har chorakda, keyingi oyning birinchi o'n kunligida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlarga oid chorak hisobotini Agentlik hamda Kuzatuv kengashiga taqdim etish;

Kuzatuv kengashi hamda Jamiyat Boshqaruv raisining Boshqarma faoliyatiga taalluqli hujjatlari ijrosini vaqtida va sifatli bajarish;

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rish jarayonida ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ular bilan ochiq muloqot olib borish.

faoliyati davomida maxfiy ish yuritish tartibiga rioya qilish, ish jarayonida o'ziga ma'lum bo'lgan davlat sirini oshkor qilmaslik hamda zarur hollarda o'tkazilayotgan o'rganishlarning maxfiyligini ta'minlash;

faoliyati davomida olingan shaxsga doir ma'lumotlar, tijorat sirlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa axborotlarni oshkor qilmaslik;

Boshqarmaga yo'naltirilgan qog'oz shakldagi hujjatlarni saqlanishini ta'minlash;

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi «E-aniticor.uz» elektron platformasiga sohaga oid qilingan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni o'z vaqtida kiritib borish.

40. Boshqarma xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarga mo'ljallangan o'quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglarda ishtirok etadi. O'quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglar tashkilot yoxud Agentlik tomonidan tashkil etilishi mumkin.

8-bob. Manfaatlar to'qnashuvi

41. Jamiyatda manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va tartibga solish O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 5 iyundagi «Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida»gi Qonuni va mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

42. Jamiyat xodimi o'ziga ma'lum bo'lgan mavjud manfaatlar to'qnashuvi haqida bir ish kuni ichida belgilangan shaklda Boshqarmaga va bevosita rahbariga xabar beradi.

43. Jamiyatga ishga qabul qilinayotgan nomzodlar, boshqa lavozimga o'tkazilayotgan xodimlar va amaldagilar ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi

to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etadi. Har yili 15 yanvargacha qayta deklaratsiya taqdim etiladi.

44. Boshqarma deklaratsiya va xabarnomalarni ko'rib chiqadi, reestr yuritadi, har yili 15 fevralgacha ma'lumotlarni umumlashtiradi va 1 martga qadar zarur choralar bo'yicha Jamiyat odob-axloq komissiyasiga taklif kiritadi.

45. Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish choralari: o'zini o'zi rad etish, qaror qabul qilish vakolatini cheklash, boshqa rahbarga bo'ysundirish, axborotga kirishni cheklash, kollegial nazorat, shaxsiy manfaatdorlikni bartaraf etish, lavozimni o'zgartirish yoki umumiy asoslarda mehnat shartnomasini bekor qilishdan iborat.

9-bob. Sovg'alar va mehmondo'stlik

46. Jamiyat xodimlari o'z xizmat vazifasi bilan bog'liq holda pul, pul ekvivalenti, qimmatbaho buyum, xizmat, chegirma, imtiyoz, sayohat yoki boshqa noqonuniy manfaatni talab qilishga yoki qabul qilishga haqli emas.

47. Rasmiy yoki protokol tadbirlarda olingan sovg'alar bo'yicha xabar berish, baholash, ro'yxatga olish va tasarruf etish tartibi alohida sovg'alar siyosati bilan belgilanadi. Bunday sovg'a haqida uch ish kuni ichida Boshqarmaga xabar beriladi.

10-bob. Xizmat tekshiruvi va javobgarlik

48. Korrupsiyaga oid qilmishlar, tovar-moddiy boyliklarning Jamiyat xodimlari tomonidan yoki ularning ishtirokida talon-toroj qilinishi, manfaatlar to'qnashuvi, sovg'alar siyosati buzilishi xizmat tekshiruvini boshlash uchun asos bo'lishi mumkin.

49. Xizmat tekshiruvi O'zbekiston Respublikasining Mehnat qonunchiligiga muvofiq o'tkaziladi.

50. Xizmat tekshiruvi davomida xodimdan yozma tushuntirish talab qilinadi, rad etilgan taqdirda dalolatnoma tuziladi, dalillar hujjatlashtiriladi va xizmat tekshiruvlari reestri yuritiladi.

51. Intizomiy jazo faqat O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida nazarda tutilgan choralar doirasida va belgilangan muddatlarga rioya etilgan holda qo'llanilishi mumkin.

52. Agar tekshiruvda ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat alomatlari aniqlansa, materiallar tegishli vakolatli organga va zarur hollarda Agentlikka dalillarning to'liqligi va butligi saqlangan holda yuboriladi.

11-bob. Korrupsiyaga oid qilmishlar

53. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda «Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni

rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 829-son qarorida qayd etilgan quyidagi qilmishlar Korrupsiyaga oid qilmishlar hisoblanadi.

korrupsiyaga oid ma‘muriy huquqbuzarliklar - O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 61¹, 193¹ va 193² va 193⁴-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

korrupsiyaga oid jinoyatlar — O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi «g» bandi, 168-moddasining uchinchi qismi «v» bandi, 192⁹ va 192¹⁰, 205, 209 — 214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatlar.

Mazkur ro‘yxat yakuniy hisoblanmaydi, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga kiritilgan qo‘shimchalar asosida Korrupsiyaga oid qilmishlar ro‘yxati kengayishi mumkin.

12-bob. Yakuniy qoidalar

54. Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlariga asosan javob beradi.

55. Boshqarma tomonidan qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilgan hujjatlar Jamiyat va uning tizim korxonalari xodimlari uchun ijro etilishi majburiy hisoblanadi.

56. Boshqarma xodimlari o‘z xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmaganligi, mehnat qonunchiligi va boshqa qonun hujjattarini bila turib qasddan buzganligi hamda maxfiy ish yuritish tartibiga amal qilmaganligi uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

57. Boshqarma xodimlariga oid Mehnat munosabatlari bilan bog‘liq barcha tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va amaldagi boshqa me‘yoriy-huquqiy xujjatlar asosida amalga oshiriladi.

58. Mazkur Nizom kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.